PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Turdimurodova Nigora Shuhrat qizi

Guliston davlat Pedagogika instituti

Pedagogika yunalishi 2-bosqich talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20328715

Anastasiya: Ushbu maqolada pedagogik amaliyotning bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashdagi o‘rni hamda amaliyot davomida hosil qilinadigan pedagogik ko‘nikmalar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish, o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlari va tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik amaliyot, pedagogik mahorat, ta’lim sifati, interfaol metodlar, kasbiy kompetensiya, tarbiyaviy ishlar, o‘quvchi faolligi, zamonaviy pedagogika.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda talabalarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan ishlashga o‘rgatish hamda kasbiy faoliyatga moslashish jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida malakali va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyot jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik amaliyot talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, ularni maktab muhiti bilan yaqindan tanishtirish.

Men pedagogik amaliyotni Guliston shahar 5-sonli umumta’lim maktabida o‘tadim. Amaliyot jarayoni 3 hafta davom etdi. Ushbu davr mobaynida 1-sinf o‘quvchilari bilan ishlash, dars jarayonlarini kuzatish va mustaqil faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash pedagogdan katta mas’uliyat, sabr va pedagogik mahorat talab qilishini amaliyot davomida yanada chuqurroq his qildim.

Asosiy qism

Amaliyotning dastlabki kunlarida maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar jamoasi bilan tanishildi. Maktabdagi ichki tartib-qoidalar, dars jarayonlari va o‘quv hujjatlarining yuritilishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Shundan so‘ng 1-sinflarda dars kuzatuvlari olib borildi.

Dars jarayonlarini kuzatish davomida o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ishlash usullari, mavzuni tushuntirish mahorati hamda darsni tashkil etish tajribasi biz uchun muhim amaliy bilim manbai bo‘ldi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib ishlash, ularni darsga qiziqtirish va faol qatnashtirish jarayonlari katta ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi.

Amaliyot davomida tarbiya fanidan ochiq dars tashkil etildi. Ochiq darsni tashkil qilish jarayonida mavzuga mos metodlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanildi. Dars davomida “Savol-javob”, “Aqliy hujum”, “Guruh bilan ishlash” kabi interfaol metodlar qo‘llanildi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirdi va ularning faolligini ta’minlashga yordam berdi.

Tarbiya fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarda odob-axloq, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va jamoaga mehr-muhabbat kabi fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli dars jarayonida o‘quvchilarning faqat bilim olishi emas, balki ma’naviy jihatdan tarbiyalanishiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Dars davomida o‘quvchilar bilan samimiy muhit yaratishga harakat qilindi. Ularning fikrlarini erkin bayon qilishi, savollarga faol javob berishi va mavzuga qiziqish bilan yondashishi dars samaradorligini oshirdi. Ayniqsa, rag‘batlantirish usullaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini yanada kuchaytirdi.

Pedagogik amaliyot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlari haqida muhim tajriba orttirildi. Har bir o‘quvchining qiziqishi, dunyoqarashi va o‘zlashtirish darajasi turlicha ekanligi sababli ularga individual yondashuv zarurligi anglandi. Bu esa pedagogdan nafaqat bilim, balki sabr-toqat va yuksak pedagogik mahorat talab qilishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, amaliyot davomida turli tarbiyaviy suhbatlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ham ishtirok etildi. Bu tadbirlar orqali o‘quvchilarda intizom, ahillik va milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishga e’tibor qaratildi.

Amaliyot bizga o‘qituvchilik kasbining naqadar sharafli va mas’uliyatli ekanligini chuqurroq anglash imkonini berdi. Tajribali pedagoglarning faoliyati, ularning dars o‘tish usullari va o‘quvchilar bilan ishlash mahorati biz uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, pedagogik amaliyot bo‘lajak pedagoglar uchun muhim tajriba maktabi hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘laydi, pedagogik mahoratini rivojlantiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.

Guliston shahar 5-sonli umumta’lim maktabida olib borilgan 3 haftalik pedagogik amaliyot davomida o‘quvchilar bilan ishlash, dars tashkil etish va tarbiyaviy faoliyat olib borish bo‘yicha muhim tajribalar orttirildi. Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayoni kelajakdagi pedagogik faoliyat uchun katta motivatsiya va tajriba bo‘lib xizmat qildi.

Kelajakda ham o‘z ustida ishlaydigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan va yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya bera oladigan pedagog bo‘lish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimiga oid farmon va qarorlari.
3. Ishmuhamedov R. “Pedagogik texnologiyalar”.
4. Musurmonova O. “Pedagogik mahorat asoslari”.
5. Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya faniga oid metodik qo‘llanmalar.